

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
MEXANIKA-MATEMATIKA FAKULTETI
"NAZARIY VA AMALIY MEXANIKA" KAFEDRASI

BO'TAYOROV SOBIT

KO'NDALANG KUCH VA O'RTA SIRT TEKISLIGIDA YOTUVCHI
KUHLAR TASIR ETADIGAN TO'G'RI TO'RTBURCHAKLI
PLASTINKALARNI HISOBLASH

"51440300 -mexanika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

ass. Nishonov O'.

2016 yil "____" _____

Bitiruv malakaviy ishi "Nazariy va amaliy mexanika" kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2016 yil "____" maydagi majlisida muhokama qilindi
va himoyaga tavsiya etildi (10-bayonnoma)

Fakultet dekani:

dots. Ro'zimurodov X.

Kafedra mudiri:

dots. Berdiyev Sh.

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2016 yil "____" iyundagi majlisida
himoya qilindi va _____ ball bilan baholandi. (____ - bayonnoma)

YaDAK raisi: _____

A'zolar: _____

Samarqand 2016

**Samarqand Davlat Universiteti mexanika-matematika fakulteti bitiruvchisi
Bo'tayorov Sobitning "5440300-Mexanika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun "Ko'ndalang kuch va o'rta sirt tekisligida yotuvchi
kuchlar tasir etadigan to'g'ri to'rtburchakli plastinkalarni hisoblash"
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

TAQRIZ

Plastinkalar va qobiqlar nazariyasining qator masalalari berilgan chegaraviy shartli differensial tenglamalarga keltiriladi. Bu tenglamalarni yechish va olingan yechimlar asosida plastinkaning egilishlari zo'riqish holatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilishda va texnikada ko'p ishlatiladigan yupqa qattiq plastinkalar deformatsiyasini matematik modellar yordamida tatqiq qilish, hamda ularni kuchlanganlik holatini yetarlicha aniqlikda ifodalovchi hisolashlarni bajarish mexanikaning dolzarb masalalari bo'lib kelmoqda.

Bitiruv malakaviy ish doirasida quyidagi ishlar amalga oshirilgan: plastinkalar nazariyasi asosiy tushuncha va gipotezalari haqida, plastinkalar turlari haqida ma'lumotlar keldirilgan; yupqa qattiq plastinka egilish tenglamalarini ular uchun o'rinli gipotezalar asosida keltirib chiqarish o'rganilgan; ko'ndalang kuch va o'rta sirt tekisligida yotuvchi kuchlar tasir etadigan to'g'ri to'rtburchakli plastinkalar uchun asosiy munosabatlarni, muvozanat tenglamalari keltirib chiqarish va tenglamalar sistemasini yechish o'rganilgan; olingan yechimlar asosida ko'ndalang kuch va o'rta sirt tekisligida yotuvchi kuchlar tasir etadigan va faqat ko'ndalang kuchlar ta'siridagi to'rtburchakli plastinkalar egilishlari koordinatalaridan bog'liq o'zgarishi grafiklar yordamida taqqoslangan. Shuningdek ko'ndalang kuch va o'rta sirt tekisligida yotuvchi kuchlar tasir etadigan to'g'ri to'rtburchakli plastinka uchun zo'riqish kuchlari, egiluvchi va burovchi momentlar, ko'ndalang kuchlar grafiklari qurilgan.

Talaba Bo'tayorov Sobitning "5440300-mexanika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun yozgan ushbu bitiruv malakaviy ishi qo'yilgan barcha talablarga javob beradi, agar u muvaffaqiyatli himoya qilinsa, 76 ballga loyiq deb hisoblayman.

"Differensial tenglamalar"
kafedraasi assistenti

Tursunov F.

**Samarqand Davlat Universiteti mexanika-matematika fakulteti bitiruvchisi
Bo'tayorov Sobitning "5440300-Mexanika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun "Ko'ndalang kuch va o'rta sirt tekisligida yotuvchi
kuchlar tasir etadigan to'g'ri to'rtburchakli plastinkalarni hisoblash"
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga
ILMIY RAHBAR MULOHAZASI**

Hozirgi zamon fan va texnikaning taraqqiyoti bir qancha muhandislik, konstruktorlik ishlarini rivojlantirishni talab qilmoqda. Muhandislik qurilmalarida ko'p ishlatiladigan yupqa qattiq plastinkalar deformasiyasini ular uchun o'rinli gipotezalarga mos matematik modellar yordamida tatqiq qilish, hamda ularni kuchlanganlik holatini yetarlicha aniqlikda ifodalovchi hisoblashlarni bajarish mexanikaning dolzarb masalalari bo'lib kelmoqda. Shu maqsadda bitiruv malakaviy ishida ko'ndalang kuch va o'rta sirt tekisligida yotuvchi kuchlar ta'sirida o'zgarmas qalinlikdagi to'g'ri to'rtburchak shakldagi plastinkalarning kuchlanganlik holatini aniqlash masalasini yechish va natijalarni tahlil qilishda zamonaviy hisob mashinalaridan unumli foydalanish masalasi qo'yilgan.

Bitiruv ishida turli xil yuklanishlar ta'siridagi plastinkalarning deformatsiyalanganlik kuchlanganlik holati faqat ko'ndalang yuklanishlar ta'siridagi hamda ko'ndalang kuch va o'rta sirt tekisligida yotuvchi kuchlar tasir etadigan to'g'ri to'rtburchakli plastinkalarni hisoblash masalalarini o'rganildi. Hisoblashlardan olingan yechimlar asosida masalaning berilgan aniq son qiymatlarida Plastinkalar egilishlarining koordinatalardan bog'liq o'zgarishi va ichki zo'riqish grafiklari qurilgan. Grafiklardan ko'rinadiki, plastinkaning o'rta sirt tekisligida yotuvchi kuch mavjud bo'lganda uning egilishlari, faqat ko'ndalang kuch ta'siridagi egilishlarga nisbatan kamayishini agar bu kuch siquvchi bo'lganda esa egilishlar oshib ma'lum, darajaga etganda plastinka ustuvorligini yo'qotishi mumkin ekanligi xulosa qilingan.

Bitiruv malakaviy ishida qaralgan masalalarning amaliy ahamiyati, ularni yechishni tushuntirish, keng qamrovli tahlil va talabaning ishga ijodiy yondoshganligini e'tiborga olib, agar u muvaffaqiyatli himoya qilinsa, 80 ballga loyiq deb hisoblayman.

Ilmiy rahbar:

ass. Nishonov O'.

Mundarija

Kirish.....	5
--------------------	----------

I-BOB. PLASTINKALAR NAZARIYASINING ASOSIY

TUSHUNCHALAR VA MUNOSABATLAR.....	8
--	----------

§ 1.1. Plastinkalar nazariyasi asosiy tushuncha va gipotezalar.....	8
--	----------

§ 1.2. Plastinkada ko'chish, deformasiyalar va kuchlanishlar	10
---	-----------

§ 1.3. Plastinkada ichki zo'riqish kuchlari. Kuchlanishlanishlarni zoriqish kuchlari orqali ifodalash.....	13
---	-----------

§ 1.4. Plastinka o'rta sirti uchun differensiyal tenglama. Plastinka uchun chegaraviy shartlar.....	17
--	-----------

II BOB. TURLI XIL YUKLANISHLAR TA'SIRIDAGI PLASTINKALARNING DEFORMATSIYALANGANLIK

KUCHLANGANLIK HOLATI

§ 2.1. Ko'ndalang yuklanishlar ta'siridagi to'g'ri to'rtburchakli plastinkalarni hisoblash.....	
--	--

§ 2.2. Ko'ndalang kuch va o'rta sirt tekisligida yotuvchi kuchlar tasir etadigan to'g'ri to'rtburchakli plastinkalarni hisoblash.....	
--	--

Xulosa.....	36
--------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar royxati.....	37
---	-----------

KIRISH

Masalaning qo'yilishi. Ko'ndalang kuch va o'rta sirt tekisligida yotuvchi kuchlar ta'sirida o'zgarmas qalinlikdagi to'g'ri to'rtburchak shakldagi plastinkalarning kuchlanganlik holatini aniqlash masalasini yechish va natijalarni tahlil qilishda zamonaviy hisob mashinalaridan unumli foydalanish masalasi qo'yilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi zamon fan va texnikaning taraqqiyoti bir qancha muhandislik, konstruktorlik ishlarini rivojlantirishni talab qilmoqda. Muhandislik qurilmalarida ko'p ishlatiladigan yupqa qattiq plastinkalar deformasiyasini ular uchun o'rinli gipotezalarga mos matematik modellar yordamida tatqiq qilish, hamda ularni kuchlanganlik holatini yetarlicha aniqlikda ifodalovchi hisoblashlarni bajarish mexanikaning dolzarb masalalari bo'lib kelmoqda.

Ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishida to'g'ri to'rtburchak shakldagi ko'ndalang kuch va o'rta sirt tekisligida yotuvchi kuchlar ta'siridagi plastinka egilishlarini trigonometrik qatorlar yordamida tadqiq qilish maqsad qilib qo'yildi. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilab qo'yildi: plastinkalar nazariyasi uchun o'rinli gipotezalarga va asosiy munosabatlari bilan tanishish; plastinka egilishlarini ifodalovchi differensial tenglamarni o'rganish; plastinka egilishini ifodalovchi differensial tenglama turli chegaraviy shartlarga mos yechimini topish bilan atroflicha tanishish; o'rganilgan metod asosida masalalar yechish, olingan natijalar asosida grafiklar qurish

Ilmiy tadqiqot metodlari. Yupqa qattiq plastinkalar uchun kuchlar muvozanat tenglamalari sistemasini o'rinli nazariyalar asosida ko'chlarga nisbatan differensial tenglamaga keltirish usullari o'rganilgan. Olingan ko'chishlarga nisbatan to'rtinchi tartibli plastinka egilish tenglamalari va berilgan chegaraviy shartlar va tashqi yuklanishning turli holatlari uchun yechiladi. Olingan sonli natijalar ko'chishlar eguvchi va burovchi momentlar, qurquvchi kuchlar epyuralari quriladi.

Ishning ilmiy ahamiyati. Ma'lumki qeformatsiyalanuvchi qattiq sm mexanikasi masalalari umumiy holda yechilishi qiyin bo'lgan va to'liq o'rganilmagan murakkab differensial tenglamalar sistemasiga keladi amaliyotda uchraydigan ko'p

masalalarni ma'lum tekistlikda sodir bo'ladi deb masalalarni soddaroq ko'rinishga keltirish mumkin. Bunday turdagi masalalarni qo'yish va yechishda zamonaviy hisob usullarida foydalanish ishga ijodiy yondashishni talab qiladi.

Ishning amaliy ahamiyati. Plastinkalar hozirgi vaqtda texnikaning ko'pgina sohalarida – qurilishda, aviyasozlikda, mashinasozlikda, va boshqa xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi. Bu esa ishlatilayotgan konstruksiyalarni engil , ishlatishga qulay qilib, tejamkorligi va yaxshi qurilishi zaruratiga olib keladi. Shu maqsadda biz to'g'riburchak shakldagi turli xil uyklanishli plastinkalarni hisoblashga doir jarayonlarni qarab chiqamiz.

Ishning tuzilishi. Maskur bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, brinchi bob 4 ta paragraf, ikkinchi bob 2 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib 32 betni tashkil etadi.

Ishning qisqacha mazmuni. Malakaviy bitiruv ishi doirasida quyidagi asosiy ishlar amalga oshiriladi. Kirish qismida masala quyilishi, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, ilmiy va amaliy ahamiyat haqida tushunchalar beriladi. Birinchi bobda plastinkalar nazariyasi asosiy tushuncha va gipotezalar haqida hamda plastinkalar uchun o'rinli tenglamalar keltirilishi o'rganiladi. Ikkinchi bobda turli xil yuklanishlar ta'siridagi plastinkalarning deformatsiyalanganlik kuchlanganlik holati faqat ko'ndalang yuklanishlar ta'siridagi hamda ko'ndalang kuch va o'rta sirt tekisligida yotuvchi kuchlar tasir etadigan to'g'ri to'rtburchakli plastinkalarni hisoblash masalalarini yechish orqali o'rganiladi. Olingan natijalar asosida ko'chishlar va ichki zo'riqish kuchlari grafiklar quriladi.

I-BOB. PLASTINKALAR NAZARIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALAR VA MUNOSABATLAR

§ 1.1. Plastinkalar nazariyasi asosiy tushuncha va gipotezalar

Plastinka deb bir o'lchami qolgan ikkita o'lchamidan yetarlicha kichik bo'lgan jismga aytiladi. Bu kichik o'lcham plastinkaning qalinligi deb ataladi. Plastinka o'rta sirti deb uning qalinligini teng ikkiga bo'luvchi cirtga aytiladi. O'rta sirtini chegarasidagi chiziqqa plastinka konturi deyiladi. X va Y o'qlarini plastinka o'rta cirti bo'yicha Z o'qni esa o'rta sirtga perpendikulyar qalinlik bo'yicha olamiz.

Bu esa plastinka o'rta sirti nuqtalari asosiy ko'chishlari vertikal ko'chishlar bo'lib w orqali ifodalanishini bildiradi. Sirt egilishlarini o'rta sirt ko'chishlari $w = w(x, y)$ orqali ifodalash mumkin va bu ko'chish plastinka o'rta sirti egilishi deyiladi.

Plastinka qalinligi uni egilish xossasiga muhim ta'sir qiladi. Plastinkalarni a/δ -xarakterlovchi o'lchamiga qarab uchta turga ajratiladi. a -plastinka o'lchami δ -qalinligi.

Birinchi tur $a/\delta \geq 80 \dots 100$ bo'lganda plastinka membranaga aylanadi. Ular bilan ishlash ularning chetlarini maxkamlanishiga bog'liq bo'lib qoladi. Bunday plastinkalarning egilishjga qarshiligi juda kam va uning o'rta sirti cho'zilichida qo'yilgan ko'ndalang yuk ta'siri muhim rol o'ynaydi. Bu ta'sir mambranaviy ta'sir deyiladi va membrana har bir elementiga qo'yilgan ko'ndalang yuklanishni z o'qiga proeksiyasidan tashkil topadi.

Juda ko'p ishlatiladigan o'rta oraliqdagi plastinkalar yupqa plastinkalar $5 \dots 10 \leq a/\delta \leq 80 \dots 100$ deb nomlanadi. Buko'rinishdagi plastinkalar ikki sinfga ajratiladi: 1) qattiq va 2) egiluvchan plastinkalar.

Agar yupqa plastinkalarda $w/\delta \leq 0,2 \dots 0,5$ bo'lsa bunday kichik ko'chishlarda asosiy rolni egishda kuch faktori o'ynaydi. (O'rta sirt deformasiyasini va mambranaviy so'riqishlarni (kuchlarni) hisobga olmaslik mumkin) Bu turdagi plastinkalarga qattiq plastinka sinfiga kiradi.

Agar w/δ ko'rsatilgan xossalardan tashqari holda va o'rta sirt deformasiyasini hisobga olganda esa plastinkalar egiluvchan deyiladi. Masalan: temirbeton plitalar

qattiq plastinkalarga oddiy misol bo'sa, yupqa temir list (tunuka) egilishi qo'yilgan yukka bog'liq qattiq ham egiluvchan.

Biz quyida yupqa qattiq plastinkalar egilishini hisobini qaraymiz. Bunday plastinkalar uchun o'rinli gipotezalar oddiy va chiziqli differensial tenglamalar bilan ifodalanadi. Egiluvchi plastinka (qobiq va membrana) tenglamalari nochiziqli ekanligi masalani qiyinlashtiradi.

Qattiq yupqa plastinkalar nazariyasi faraz va cheklashlari quyidagicha ifodalanadi:

1. O'rta sirtga normal mn kesma deformatsiyalangandan keyin ham o'rta sirtga normal va to'g'ri chiziqli element bo'lib saqlanadi. Bu holat " normal to'g'ri chiziq gipotezasi deb nomlanadi.

Ixtiyoriy o'g'ri chiziqli element orta sirt normalini z o'qi bo'ylab yo'nalgan va gipoteza bo'yicha bu element bilan x, y o'qlar orasidagi t'g'ri burchak o'zgarmaydi, ya'ni;

$$\gamma_{yz} = 0, \quad \gamma_{zx} = 0, \quad (1.1)$$

To'g'ri chiziqli element uzunligi gipotezasidan zo'qi boyicha chiziqli yani plastinkaning qalinligi boyicha deformatsiya yo'q, bundan

$$\varepsilon_z = 0 \quad (1.2)$$

O'rta sirt tekisligida chozilish, siqilish va buralish deformatsiyalarining yo'qligi u neytral va unda ko'chishlar yoq ekanligini bildiradi, ya'ni;

$$u_0 = v_0 = 0 \quad (1.3)$$

2. Plastinka gorizontall qatlamlarida σ_z kuchlanishni hisobga olmasa ham bo'ladi σ_x va σ_y kuchlanishlar esa teng. Bu ikki faraz adabiyotlarda Kirxgof gipotezasi deb nomlanadi, qobiqlar uchun qo'llanilganda Kirxgof-Lyav gipotezasi deyiladi.

3. Uchinchi faraz harakterni cheklash bo'ladi. Ko'chishlar etarlicha kichik $w/\delta \leq 0,2 \dots 0,5$ va o'rta sirt membranaviy zo'riqishlarini hisobga olmasa ham bo'ladi.

§ 1.2. Plastinkada ko'chish, deformatsiyalar va kuchlanishlar

Plastinka egilishini o'rganishda ko'chish va deformatsiyalarni ifodalasdan boshlaymiz. Plastinka o'rta sirti normal bo'yicha qo'yilgan yuklanishlar ta'sirini qaraymiz. Bunday kuchlanish ta'sirida plastinka ko'chishlarini qabul qilingan gipotezalar bo'yicha ifodalaymiz. Birinchi gipotezadan (1.2) shartga ko'ra;

$$\varepsilon_z = \frac{\partial w}{\partial z} = 0$$

Bundan plastinka egilishlari w z kordinatadan bog'liq emasligi kelib chiqadi, ya'ni;
 $w = w(x, y)$

Bu esa plastinka o'rta sirti egilishi hamma nuqtalari vertikal ko'shishlar w bilan ifodalanishini bildiradi.

Siljsh uchun (2.1) shartlarni quyidagicha olamiz;

$$\gamma_{yz} = \frac{\partial v}{\partial z} + \frac{\partial w}{\partial y} = 0; \quad \gamma_{zx} = \frac{\partial w}{\partial x} + \frac{\partial u}{\partial z} = 0;$$

bu srtlardan quyidagilarni olamiz:

$$\frac{\partial u}{\partial z} = -\frac{\partial w}{\partial x}, \quad \frac{\partial v}{\partial z} = -\frac{\partial w}{\partial y};$$

Bu tenglamalarni z bo'yicha integrallasab, quyidagilarni olamiz,

$$u = -z \frac{\partial w}{\partial x} + f_1(x, y); \quad v = -z \frac{\partial w}{\partial y} + f_2(x, y); \quad (a)$$

$f_1(x, y)$ va $f_2(x, y)$ xususiy hosilalarni integrallashtan hosil bo'lgan funksiyalarni topish uchun o'ta sirtning deformatsiyalanmaslik gipotezasidan foydalanamiz. (1.3) shartga ko'ra (a) formula $z=0$ uchun; da quyidagi ko'rinishni oladi:

$$u_0 = f_1(x, y) = 0; \quad v_0 = f_2(x, y) = 0;$$

bunga ko'ra (a) quyidagi ko'rinishni oladi:

$$u = -z \frac{\partial w}{\partial x}; \quad v = -z \frac{\partial w}{\partial y}. \quad (1.4)$$

Bu esa plastinka nuqalarining x va y o'qi yonalishida ko'chishlari, plastinka orta sirti egilishi funksiyasi orqali ifodalanishini bildiradi.

Plastinkani noldan farqli deformasiyalari (1.4) ga ko'ra quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{aligned}\varepsilon_x &= \frac{\partial u}{\partial x} = -z \frac{\partial^2 w}{\partial x^2}; \\ \varepsilon_y &= \frac{\partial v}{\partial y} = -z \frac{\partial^2 w}{\partial y^2}; \\ \gamma_{xy} &= \frac{\partial u}{\partial y} + \frac{\partial v}{\partial x} = -2z \frac{\partial^2 w}{\partial x \partial y}\end{aligned}\quad (1.5)$$

Demak, plastinka o'rta sirti egilishida deformasiyalar va ko'chishlar bitta funksiya bilan ifodalanadi.

Endi plastinkada kuchlanishlarni ifodasini qaraymiz. Normal kuchlanishlardan σ_x va σ_y noldan farqli uchinchi gipoteza ko'ra $\sigma_z = 0$. Gukk qonunidan

$$\varepsilon_x = \frac{1}{E}(\sigma_x - \nu\sigma_y), \quad \varepsilon_y = \frac{1}{E}(\sigma_y - \nu\sigma_x)$$

(1.5) ga ko'ra bu ifodan σ_x va σ_y larni quyidagicha yozish mumkin

$$\sigma_x = -\frac{Ez}{1-\nu^2} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} \right) \quad \sigma_y = -\frac{Ez}{1-\nu^2} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} \right) \quad (b)$$

Guk qonunida $\gamma_{xy} = \frac{\tau_{xy}}{G}$, $G = \frac{E}{2(1+\nu)}$ ekanligidan

$$\tau_{xy} = \frac{E}{2(1+\nu)} \gamma_{xy} = -\frac{Ez}{(1+\nu)} \frac{\partial^2 w}{\partial x \partial y}. \quad (c)$$

Urinma kuchlanishlar boshqa ikkita tekislik bo'yicha (1.1) tenglikka asosan nolga tenglashtiriladi.

$$\tau_{zy} = \frac{E}{2(1+\nu)} \gamma_{zy} = 0$$

$$\tau_{zx} = \frac{E}{2(1+\nu)} \gamma_{zx} = 0.$$

Bu natija faqatgina qabul qilingan gipotezaga muvofiq shunday olindi. Urinma kuchlanishlar noldan farqli ekanligini muvozanat tenglamalarida ko'rishimiz mumkin. Agar hajmiy kuchlarni hisobga olmasak

$$\frac{\partial \tau_{xz}}{\partial z} = -\frac{\partial \sigma_x}{\partial x} - \frac{\partial \tau_{xy}}{\partial y}$$

Bunga (b) va (c) formuladagi kuchlanishlarni qo'ysak

$$\frac{\partial \tau_{xz}}{\partial z} = \frac{Ez}{(1-\nu^2)} \left(\frac{\partial^3 w}{\partial x^3} + \nu \frac{\partial^3 w}{\partial x \partial y^2} \right) + \frac{Ez}{1+\nu} \frac{\partial^3 w}{\partial x \partial y^2}$$

Soddalashtirishlardan keyin

$$\frac{\partial \tau_{xz}}{\partial z} = \frac{Ez}{1-\nu^2} \frac{\partial}{\partial x} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} \right)$$

Yoki

$$\frac{\partial \tau_{xz}}{\partial z} = \frac{Ez}{1-\nu^2} \frac{\partial}{\partial x} \Delta^2 w$$

z bo'yicha integrallsak,

$$\tau_{xz} = \tau_{zx} = \frac{Ez^2}{2(1-\nu^2)} \frac{\partial}{\partial x} \nabla^2 w + f_3(x, y) \quad (d)$$

$f_3(x, y)$ ixtiyoriy funksiyani ifodalash uchun chegaraviy shartlardanamiz.

Yuqori va pastki plastinka tekisliklarida urinma kuchlar yo'q $z = \pm \frac{h}{2}$

$\tau_{zx} = 0$. Bu shartni (3) formulaga qo'ysak

$$\frac{Eh^2}{8(1-\nu^2)} \frac{\partial}{\partial x} \nabla^2 w + f_3(x, y) = 0$$

Bundan

$$f_3(x, y) = -\frac{Eh^2}{8(1-\nu^2)} \frac{\partial}{\partial x} \nabla^2 w$$

Keltirilgan (c) formula ko'rinishi quyidagicha bo'ladi

$$\tau_{zx} = -\frac{E}{2(1-\nu^2)} \left(\frac{h^2}{4} - z^2 \right) \frac{\partial}{\partial x} \nabla^2 w \quad (e)$$

Xuddi shunday muvozanat tenglamalarining ikkinchisiga ko'ra

$$\tau_{yz} = -\frac{E}{2(1-\nu^2)} \left(\frac{h^2}{4} - z^2 \right) \frac{\partial}{\partial y} \nabla^2 w \quad (j)$$

(b) (c) (e) va (j) formulalar plastinkaning o'rta sirtiga perpendikulyar kesimida hosil bo'ladigan kuchlanishlarni beradi

$$\left. \begin{aligned} \sigma_x &= -\frac{Ez}{1-\nu^2} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} \right) \\ \sigma_y &= -\frac{Ez}{1-\nu^2} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} \right) \\ \gamma_{xy} &= -\frac{Ez}{(1+\nu)} \frac{\partial^2 w}{\partial x \partial y} \\ \tau_{zx} &= -\frac{E}{2(1-\nu^2)} \left(\frac{h^2}{4} - z^2 \right) \frac{\partial}{\partial x} \nabla^2 w \\ \tau_{yz} &= -\frac{E}{2(1-\nu^2)} \left(\frac{h^2}{4} - z^2 \right) \frac{\partial}{\partial y} \nabla^2 w \end{aligned} \right\} \quad (1.6)$$

§ 1.3. Plastinkada ichki zo'riqish kuchlari. Kuchlanishlanishlarni zoriqish kuchlari orqali ifodalash

Plastinkadan cheksiz kichik $dx dy dz$ element olamiz va uni rasmdagidek tasvirlaymiz. Tekislik normal x o'qiga parallel bo'lgan tekislikda σ_x , τ_{yx} va τ_{zx} kuchlanishlar joylashgan, σ_x kesimni tashqi normal bo'ylab yo'nalgan urinma kuchlanishlar koordinata o'qlari musbat yo'nalishiga, kesim tashqi normal bo'nalishi esa x o'qining musbat yo'nalishiga mos keladi.

Qaralayotgan kesim eni birligiga to'g'ri keluvchi normal ichki kuchni N_x bilan belgilaymiz. Bu x o'qiga parallel bo'lgan kesimga normal ichki kuchlar teng ta'sir etuvchisini x o'qdagi proeksiyasiga teng. Bu o'qga faqatgina σ_x kuchlanish proektsiyalanadi.

Cheksiz kichik yuza $dx dz$ dagi ichki kuchlar $dx dy dz$ ga teng kesim birlik yuzasiga $\sigma_x dz$ kuch to'g'ri keladi. Bunday elementar kuchlarning plastinka qalinligidagi yig'indisi normal kuchni ifodalaydi.

$$N_x = \int_{-\frac{h}{2}}^{\frac{h}{2}} \sigma_x dz$$

Normal kuchlanish σ_x ni o'rniga (1.6) formulani qo'yib integral belgisidan z ga bog'liq bo'lmagan kattaliklarni chiqarsak

$$N_x = -\frac{E}{1-\nu^2} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \nu \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} \right) \int_{-\frac{h}{2}}^{\frac{h}{2}} z dt$$

Bundan $N_x = 0$ ekanligi kelib chiqadi.

Xuddi shunday egiluvchan moment M_x ni $\sigma_x dz \cdot z$ elementar momentlar yig'indisi shaklida yozsak

$$M_x = \int_{-\frac{h}{2}}^{\frac{h}{2}} \sigma_x z dt = -\frac{E}{1-\nu^2} \left(\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \nu \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} \right) \int_{-\frac{h}{2}}^{\frac{h}{2}} z^2 dt$$

Bundan

$$M_x = -D \left(\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \nu \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} \right)$$

Bu yerda

$$D = \frac{Eh^3}{12(1-\nu^2)} \quad (1.7)$$

(1.7) kattalik silindrik bikrlilik deb ataladi. U plastinka fizik geometrik xarakteristikalaridan iborat.

Kesimda ko'ndalang kuch quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$Q_x = \int_{-\frac{h}{2}}^{\frac{h}{2}} \tau_{zx} dx$$

(1.6) formulaga ko'ra

$$Q_x = -\frac{E}{2(1-\nu^2)} \frac{\partial}{\partial x} \nabla^2 w \int_{-\frac{h}{2}}^{\frac{h}{2}} \left(\frac{h^2}{4} - z^2 \right) dz$$

Integrallashdan keyin

$$Q_x = -D \frac{\partial}{\partial x} \nabla^2 w$$

Siljish kuchlari sifatida S_x olsak u ichki kuchlarni z o'qdagi proeksiyalari yig'indisi hisoblanadi.

(1.6) formulaga ko'ra $S_x = 0$ ekanligini ko'rish mumkin.

Burovchi moment esa quyidagicha ifodalanadi

$$M_{yx} = \int_{-\frac{h}{2}}^{\frac{h}{2}} \tau_{yx} z dz = -D(1-\nu) \frac{\partial^2 w}{\partial x \partial y}$$

Xuddi shunday y o'q bo'yicha

$$M_y = -D \left(\frac{\partial^2 w}{\partial y^2} + \nu \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} \right)$$

$$M_{xy} = -D(1-\nu) \frac{\partial^2 w}{\partial x \partial y}$$

$$Q_y = -D \frac{\partial}{\partial y} \nabla^2 w$$

(b) va (c) formulalarda $M_{xy} = M_{yx} = H$ desak plastinka o'rta sirtiga perpendikulyar kesimda ko'ndalang yuk ta'sirida hosil bo'ladigan ichki kuchlar:

Eguvchi momentlar

$$\left. \begin{aligned} M_x &= -D \left(\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \nu \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} \right) \\ M_y &= -D \left(\frac{\partial^2 w}{\partial y^2} + \nu \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} \right) \end{aligned} \right\} \quad (1.8)$$

Burovchi moment

$$H = -D(1-\nu) \frac{\partial^2 w}{\partial x \partial y} \quad (1.9)$$

Ko'ndalang kuchlar

$$\left. \begin{aligned} Q_x &= -D \frac{\partial}{\partial x} \nabla^2 w \\ Q_y &= -D \frac{\partial}{\partial y} \nabla^2 w \end{aligned} \right\} \quad (1.10)$$

Biz yuqorida plasrinka o'rta sirti nuqtasida momentlar ko'ndalang kuchlar ifodasini qarab chiqdik. Shuningdek plastinka ixtiyoriy nuqtasi kuchlanishlarinni

ko'rib chiqdik. Ular orasidagi bog'lanishni quyidagicha ifodalash (1.6) va (1.8) formulalar bajariladi.

$$\begin{cases} \sigma_x = 12M_x \frac{z}{h^3} \\ \sigma_y = 12M_y \frac{z}{h^3} \end{cases}$$

Birlik enli to'g'ri to'rtburchakli kesim inersiya momenti $J = \frac{h^3}{2}$ ekanligidan 'materiallar qarshiligi' kursidan ma'lumki

$$\sigma_x = M_x \frac{z}{J} \qquad \sigma_y = M_y \frac{z}{J}$$

Normal kuchlanish maksimal qiymati $z = \pm \frac{h}{2}$ da hosil bo'ladi

$$\begin{cases} \max \sigma_x = \frac{M_x}{W} \\ \max \sigma_y = \frac{M_y}{W} \end{cases}$$

Bu yerda $W = \frac{7}{h/2} = \frac{h^2}{6}$ endi bir to'g'ri to'rtburchakli kesim qarshilik momenti yuqoridagi (1.6) va (1.10) fo'rmuladan τ_{xy} urinma kuchlanishni H burovchi moment orqali ifodalash mumkin.

$\tau_{xy} = \frac{12Hz}{h^3}$ maksimal urinma kuchlanish $z = \pm \frac{h}{2}$ da hosil bo'ladi

$$\max \tau_{xy} = \frac{6H}{h^2}$$

Vertikal urinma kuchlanish (1.6) va (1.9) dan qirquvchi kuchlar orqali quyidagicha ifodalanadi.

$$\tau_{zx} = 6Q_x \frac{\left(\frac{h^2}{4} - z^2\right)}{h^3}$$

$$\tau_{yz} = 6Q_y \frac{\left(\frac{h^2}{4} - z^2\right)}{h^3}$$

Plastinka o'rta sirtida urinma kuchlanish $z=0$ da maksimal qiymatga erishadi.


$$\max \tau_{zx} = \frac{3Q_x}{2h}$$

$$\max \tau_{yz} = \frac{3Q_y}{2h}$$

§ 1.4. Plastinka o'rta sirti uchun differentsiyal tenglama. Plastinka uchun chegaraviy shartlar

$q=q(x,y)$ ko'ndalang kuch ta'sirida plastinka o'rta qatlami egiladi, egrilanish sirt egilishi $w=w(x,y)$ kabi tasvirlanadi.


Plastinkada eguvchi va burovchi momentlardan tashqari τ_{xy} va τ_{yz} urinma kuchlanishlar natijasi sifatida Q_x va Q_y ko'ndalang kuchlar paydo bo'ladi.



1-rasm

1- rasmdan ko'rinadiki ko'ndalang kuchlar Q_x va Q_y lar quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin. x va y o'qi bo'yicha hamma mometlar proyeksiyalari yig'indisini nolga teng desak,

$$\frac{\partial M_x}{\partial x} dx dy + \frac{\partial M_{xy}}{\partial y} dy dx - Q_x dx dy = 0$$



2-rasm

bundan

$$Q_x = \frac{\partial M_x}{\partial x} + \frac{\partial M_{xy}}{\partial y}$$

$$Q_y = \frac{\partial M_y}{\partial y} + \frac{\partial M_{xy}}{\partial x}$$

Xuddi shunday z o'qqa nisbatan momentlar yig'indisi nol desak,

$$\frac{\partial Q_x}{\partial x} dx dy + \frac{\partial Q_y}{\partial y} dy dx - q dx dy = 0$$

bundan

$$q = \frac{\partial Q_x}{\partial x} + \frac{\partial Q_y}{\partial y} \quad (3.17)$$

bu yerda q ko'ndalang yuklanish.

Q_x va Q_y ko'ndalang kuchlar momentlar orqali ifodasini buifodaga qo'ysak,

$$\frac{\partial^2 M_x}{\partial x^2} + 2 \frac{\partial^2 M_{xy}}{\partial x \partial y} + \frac{\partial^2 M_y}{\partial y^2} = q \quad (1.11)$$

tenglikka kelimiz. Bu ifoda (1.8) ga ko'ra quyidagi ko'rinishni oladi.

$$D \left(\frac{\partial^4 w}{\partial x^2} + 2 \frac{\partial^4 w}{\partial x^2 \partial y^2} + \frac{\partial^4 w}{\partial y^4} \right) = q \quad (1.13)$$

yoki qisqacha,

$$\nabla^2 \nabla^2 w = \frac{q}{D} \quad (1.13)$$

(1.13) tenglama plastinka egilishi differensial tenglamasi deyiladi.

(1.8) ga ko'ra plastinkada eguvchi moment ifodasi uchun quyidagini olamiz ;

$$M_x + M_y = -D(1 + \mu) \left(\frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} \right)$$

yoki

$$\nabla^2 w = -\frac{M_x + M_y}{D(1 + \mu)} ; \quad (1.14)$$

bundan

$$\nabla^2 \nabla^2 w = -\frac{\nabla^2 (M_x + M_y)}{D(1 + \mu)}$$

(1.13) tenglamaga bu ifodani qo'ysak

$$\nabla^2 (M_x + M_y) = -(1 + \mu)q ; \quad (1.15)$$

Bu tenglama (1.13) tenglamaga teskari tenglama bo'lib plastinkaning materialining fizik xususiyatidan bog'liq emas bu esa elastik izotrop plastinka uchun to'ri keladi. (1.13) tenglama elastik plastinka uchun asosiy tenglama hisoblanadi. Bu tenglama echimi berilgan chegaraviy shartlarni qanoatlantirilishi talab etiladi. Plashtinka tomonlari mahkamlanishidan bog'liq chegaraviy shartlar quyidagucha ifodalanadi.


Plastinka egilishlari, o'rta sirt burilish burchagi, eguvchi va burovchi momentlar, ko'ndalang kuchlar uning tomonlarining qanday mahkamlanishiga bog'liq.

Chegaradagi ko'chishlar, egilish va o'rta sirt burilish burchagi berilishi shartlari geometrik shartlar deyiladi.

Chegaradagi kuchlar, eguvchi va burovchi momentlar, ko'ndalang kuchlarni berilish shartlari statik shartlar deyiladi. Agarda bir vaqtda ham ko'chishlar uchun,

ham kuchlar uchun shartlar berilgan bo'lsa, bunday chegaraviy shart aralash chegaraviy shart deyiladi. Har bir tomon uchun 2 ta chegaraviy shart beriladi.

Plastinka chetlari turli shaklda mahkamlanganda chegaraviy shartlarni berilishi qaraymiz.



1) Qistirib mahkamlanganlik sharti. y o'qdagi $x=0$ tomon qattiq mahkamlangan bo'lsin. Bu tomonda ko'chish va y o'qqa nisbatan burilishlar yo'q ya'ni,

$$x=0 \text{ da } w=0, \quad \frac{\partial w}{\partial y}=0. \quad (1.16)$$

2) Sharnirli mahkamlanganlik sharti.

Sharnirli mahkamlangan tomon uchun,

$$w=0, \text{ va } M_x=0 \quad (1.17)$$

yoki, bu esa ko'chishlar orqali,

$$w=0, \quad \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} + \mu \frac{\partial^2 w}{\partial y^2} = 0$$

bu tomonda $y = \text{const}$ bo'lganidan $\frac{\partial^2 w}{\partial y^2} = 0$ ekanligi ma'lum, bundan chegaraviy shart quyidagicha bo'lishi kelib chiqadi.

$$w=0, \quad \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} = 0.$$

3) Erkin tomon uchun chegaraviy shart.

Bu holda eguvchi moment M_y , ko'ndalang kuch Q_y burovchi moment M_{xy} nolga aylanadi. Bu 2 ta shart emas 3 ta shartdir. Masala echishda chegaraviy shart 2ta

berilishi shart. Bu ziddiyatni yo'qotish uchun oxirgi ikkita shartni bitta shartga keltiramiz.

